

MAVZU. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INKLYUZIV GURUHLARNI TASHKIL ETISH

Reja:

- 1. Normativ vame'yoriy xujjatlar bilan ishlash.**
- 2. Maktabqacha ta'limtashkilotlarida inklyuziv guruhlarini tashkil etish tartibi.**
- 3. Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar bilan sihlash.**

***Tayanch so'z va iboralar:** inklyuziv, korreksion, alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar, individual ta'lim dasturi, maxsus pedagoglar.*

Inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadi - ta'lim olish uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash va barcha bolalarning individual xususiyatlaridan, oldingi ta'lim yutuqlaridan, tili, madaniyati, ota-onalarning ijtimoiy va iqtisodiy holatidan qat'iy nazar ta'limda muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir.

Inklyuziv ta'limning maqsadi - alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatli maktabgacha ta'lim berishni ta'minlashdan iborat.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari alohida ta'lim olish ehtiyojari bo'lgan bolalar va ularning ota-onalariga korreksion pedagogik yordam olishida va kasbga yo'naltirishda har tomonlama yordam ko'rsatadi.

Inklyuziv ta'limning vazifalari quyidagilardan iborat:

rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo'lgan bolalar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;

jamoatchilik hamda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar muammolariga nisbatan bag'rikenglik munosabatini shakllantirish;

ta'lim-tarbiya jarayonida sog'lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish;

barcha bolalar uchun davlat ta'lim standartlariga muvofiq maktabgacha ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun imkoniyat yaratish;

bolalarning har tomonlama rivojlanishi, emotsional-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy ko'nikma va salohiyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ota-onalarni farzandlariga ta'lim-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiya metod va vositalarini qo'llash sohasida xabardorlik darajasini oshirish, ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlashdir.

Qo'llaniladigan asosiy tushunchalar:

maktabgacha ta'lim va tarbiya - bolalarga ta'lim-tarbiya berishga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'lim turi;

inklyuziv ta'lim - alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlagan holda beriladigan ta'lim;

inklyuziv ta'lim va tarbiya - bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta'lim va tarbiya olinishini teng ta'minlovchi jarayon;

inklyuziv guruh - maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalar va rivojlanishida nuqsonlari bo'lmagan bolalarning bir tashkilotda birgalikda o'qishi va tarbiyalanishiga qaratilgan guruhlar;

individual ta'lim dasturi - inklyuziv ta'limga jalb qilingan har bir alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning shaxsiy qiziqish-xususiyatidan kelib chiqib, uzoq va qisqa muddatli tuziladigan reja;

rivojlanish sohasi - bola rivojlanishidagi aniq bir yo'nalish.

Me'yoriy-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **"Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"** 2024-yil 30-sentabrdagi **PF 152-sonli** farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **"Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"** 2019-yil 13-maydagi **VM 391-sonli** qarori;

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining **"Umumiy turdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim guruhleri faoliyatini tashkil etish to'g'risida"** 2025-yil 10-dekabrdagi **392-sonli** buyrug'i;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi va Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazining **"Inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinf faoliyati yo'lga qo'yilgan umumta'lim maktablari hamda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlarning hamkorligini yo'lga qo'yish to'g'risida"** 2025-yil 29-sentabrdagi **49-Q/Q, 8-qq va 4-q/q-sonli** qo'shma qarori.

Mazkur qo'shma qarorga muvofiq hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish yuzasidan:

Ta'lim muassasalari o'rtasida tajriba almashishning maqsadi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratish, ta'lim muassasalariga tez va oson moslashishini ta'minlash, ular uchun to'siqsiz muloqot muhitini yaratish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning qiyinchiliklarsiz ijtimoiylashuviga ko'maklashish, inklyuziv ta'lim dasturlarini rivojlantirish va ta'lim muassasalari o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni hamda yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishdan iborat.

Quyidagilar ta'lim muassasalari o'rtasida tajriba almashishning vazifalari hisoblanadi:

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun barqaror inklyuziv ta'lim muhitini yaratish;

ta'lim muassasalari o'rtasida tajriba almashish jarayonlarini tashkil etish; inklyuziv ta'lim sohasida zamonaviy metodikalar va texnologiyalarni joriy qilish;

ota-onalar, pedagog kadrlar va ta'lim muassasalari o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlash;

ta'lim jarayonidagi to'siqlarni aniqlash va bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish;

pedagog kadrlar malakasini oshirish va ularni inklyuziv ta'lim uchun tayyorlash;

innovatsion yondashuvlarni tatbiq qilish orqali inklyuziv ta'lim sifatini oshirish;

inklyuziv guruhlarini tashkil etish orqali jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar hamda boshqa (sog'lom) bolalar uchun teng ta'lim va tarbiya sharoitlarini yaratish, ularning jamiyatga moslashuvini ta'minlash, ijtimoiy va ta'limiy imkoniyatlarini kengaytirish.

Tajriba almashish oflayn shaklda quyidagi ko'rinishlarda amalga oshiriladi:

muhokama qilinadigan mavzularni belgilab olish;
ochiq dars, seminar-trening, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish;
ilg'or pedagogik tajribalarni ko'rsatish va muhokama qilish;
innovatsion metodik vositalarni tatbiq etish;
samarali deb topilgan tajribalarni umumlashtirish va keng jamoatchilikka ish faoliyatida qo'llash uchun tavsiya etish.

Bir kunga mo'ljallangan tajriba almashish jarayoni davomiyligi 1,5–2 soatdan iborat bo'lib, taqdimotlar soni uchtdan oshmasligi lozim. Tadbirlar davom etadigan kunning soni o'zaro kelishilgan holda belgilanadi.

Tajriba almashish natijasida maxsus ta'lim muassasalarining faoliyati, o'ziga xos tajribalari, ko'ngillilar faoliyati va boshqa muhim jihatlar namoyon etiladi.

Tajriba almashish davomida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari pedagog kadrlari inklyuziv ta'lim tashkil etilgan ta'lim muassasalari maxsus pedagoglariga yo'l-yo'riq ko'rsatishi, tajribasi bilan o'rtoqlashishi, maslahatlar berishi, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini qo'llab-quvvatlashi, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni boshqa (sog'lom) bolalar bilan birga o'qishiga doir nozik jihatlarni tushuntirishi, ehtiyojdan kelib chiqib kerakli ta'lim yondashuvlarini qo'llashga yo'naltirishi, amaliy ish tajribasi bilan o'rtoqlashishi lozim.

Ta'lim muassasalari pedagog kadrlar tomonidan tajriba almashish jarayonida bir qator holatlarga katta ahamiyat berilishi zarur.

Xususan:

dars mashg'ulotlari paytida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga dars mashg'ulotlari jarayonida ularning xususiyatlaridan kelib chiqib yondashish;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning dars mashg'ulotlar jarayonida kuzatilgan diqqat tarqoqligini oldini olish;

dars jarayonida topshiriqlarni bajarishda ayniqsa yozma ish va test sinovlarida ko'proq vaqt ajratilishi, agar matn uchun savollar bo'lsa, faqat uchtagacha savollarni muhokama qilish;

bolalarga murojaat qilganda (savol, topshiriq berilganda) sodda va qisqa so'zlardan foydalanish;

vazifa qisqa, aniq, bitta harakatni ifodalaydigan, bir necha bosqichlardan iborat bo'lishi;

vazifani shakllantirishda bolaning ham ishtirokini ta'minlash;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ishni nihoyasiga yetkazish imkoniyatini yaratib berish lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari, xususan inklyuziv ta'lim guruhlar tashkil etilgan davlat va nodavlat, ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan, qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasida;

Inklyuziv ta'lim guruhlar tashkil etilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda inklyuziv ta'lim yoki boshlang'ich tayanch korreksion sinf tashkil etilgan umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'rtasida.

Tajriba almashishda ta'lim muassasalari rahbarlari, pedagog kadrlar, uslubchilar, psixologlar, maxsus pedagoglar (defektologlar) hamda boshqa mutaxassislar ishtirok etadi.

Tajriba almashish davomida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari pedagog kadrlari inklyuziv ta'lim tashkil etilgan ta'lim muassasalari maxsus pedagoglariga yo'l-yo'riq ko'rsatishi, tajribasi bilan o'rtoqlashishi, maslahatlar berishi, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini qo'llab-quvvatlashi, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni boshqa (sog'lom) bolalar bilan birga o'qishiga doir nozik jihatlarni tushuntirishi, ehtiyojdan kelib chiqib kerakli ta'lim yondashuvlarini qo'llashga yo'naltirishi, amaliy ish tajribasi bilan o'rtoqlashishi lozim bo'ladi.

Statistik ma'lumotlar:

Bugungi kunda O'zbekistonda **7,104 ta** maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyat yuritadi.

Ulardan **5,604 tasi (79 foiz)** - davlat, **63 tasi** - idoraviy va **1,437 tasi (21 foiz)** - nodavlat tashkilotlardir.

Inklyuziv guruhlar tashkil etilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari **236 ta**;

Inklyuziv guruhlar **462 ta**;

Qamrab olingan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar **234 nafar**.

2021/2022-o'quv yilida:

31 ta umumta'lim maktabi;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar **87 nafar** (*55 nafar o'g'il, 32 nafar qiz*);

46 ta inklyuziv ta'lim sinfi;

4 ta boshlang'ich tayanch korreksion sinflar;

35 (*19 nafar o'g'il, 16 nafar qiz*) **nafar** bir xil tashxisli alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar.

2022/2023-o'quv yilida:

195 ta umumta'lim maktabi;

504 nafar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar.

2023/2024-o'quv yilida:

415 ta umumta'lim maktabi;

736 nafar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar.

2024/2025-o'quv yilida:

947 ta umumta'lim maktabi;

1401 ta inklyuziv ta'lim sinfi;

1948 nafar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar

2025/2026-o'quv yilida:

1708 ta umumta'lim maktabi;

3710 nafar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar.

Asos: <https://www.uzedu.uz/>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”** 2024-yil 30-sentabrdagi **PF 152-sonli** farmoniga muvofiq:

Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligining 2025-yil 1-yanvardan boshlab tajriba-sinov tariqasida har bir tuman (shahar)dagi bittadan umumiy turdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim guruhlarini ochish to'g'risidagi tashabbusi qo'llab-quvvatlanishi;

inklyuziv ta'lim guruhlarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan tarbiyalanuvchilar bilan ta'lim-tarbiya va korreksion-pedagogik ishlarni olib borayotgan tarbiyachi, yordamchi-tarbiyachilar hamda o'qituvchi-defektolog (logoped)larga alohida mehnat sharoitlari uchun lavozim maoshlari va bazaviy tarif stavkalariga nisbatan bir nafar bola uchun **10 foiz**, ikki nafar bola uchun **20 foiz**, uch nafar bola uchun esa **30 foiz** miqdorida qo'shimcha haq to'lash tartibi joriy etilishi belgilangan (*Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasi amal qilish muddati davomida*).

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **“Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”** 2019-yil 13-maydagi **391-sonli** qaroriga muvofiq:

maktabgacha ta'lim tashkiloti vazifalari hisobiga bolalarga, shu jumladan, o'ziga xos ehtiyojlari bor bolalarga yakka tartibda ta'lim dasturlaridan foydalanish, shuningdek, o'z vaqtida inklyuziv maktabgacha ta'lim va tarbiya olish imkonini beradigan qulay muhit yaratish;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalar va rivojlanishida nuqsonlari bo'lmagan bolalarning bir tashkilotda birgalikda o'qishi va tarbiyalanishiga qaratilgan **inklyuziv guruhlar tashkil etilish** (*Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar qabul qilinadi. Joriy o'quv yili davomida 7 yoshga*

to'lgan tarbiyalanuvchilar keyingi o'quv yilining boshlanishiga qadar tashkilotda qoladi).

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotidagi **inklyuziv guruhlarga** qabul qilish hamda ulardan chiqarish psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasiga ko'ra ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar roziligi bilan amalga oshiriladi.

Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasi tarbiyalanuvchilarni **inklyuziv guruhlarga** qabul qilish uchun asos hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhlarini to'ldirishda:

davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yangidan tashkil etiladigan guruhlar davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari taklifiga ko'ra, tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi rahbarining buyrug'iga asosan tashkil etilishi;

maktabgacha ta'lim tashkilotidagi inklyuziv guruhlar yosh prinsipi bo'yicha to'ldirilishi;

3 yoshdan katta bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan **inklyuziv guruhlar** rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarning toifasiga qarab to'ldiriladi hamda ko'pi bilan **25 nafar bola**, shu jumladan, rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan ko'pi bilan **3 nafar bolani** tashkil etishi belgilangan.

uch yoshgacha bo'lgan bolalar uchun guruhlarda:

ko'pi bilan **yigirma besh nafar bola**, shu jumladan rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan ikki yoshdan uch yoshgacha ko'pi bilan **uch nafar bola**.

uch yoshdan katta bolalar uchun guruhlarda:

ko'pi bilan **yigirma besh nafar bola**, shu jumladan rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan (yaxshi ko'ra olmaydigan yoki yaxshi eshita olmaydigan yoki tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo'lgan) ko'pi bilan **uch nafar bola**;

ko'pi bilan **yigirma besh nafar bola**, shu jumladan rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan (ko'rish ambliopiyasiga chalingan, ko'zi g'ilay yoki nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan yoki autizmga chalingan) ko'pi bilan **ikki nafar bola**;

ko'pi bilan **yigirma besh nafar bola**, shu jumladan nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan ko'pi bilan **uch nafar bola**;

ko'pi bilan **yigirma besh nafar bola**, shu jumladan ruhiy rivojlanishida kechikayotgan ko'pi bilan **uch nafar bola**.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida psixolog faoliyatini tashkil etish

Maktabgacha ta'lim tashkilotida psixologik xizmatining maqsadi - bolalarning individual imkoniyatlari va xususiyatlariga mos ravishda to'laqonli aqliy, shaxsiy rivojlanishini ta'minlashdan iborat bo'lishi lozim.

Psixologik xizmatning asosiy vazifalari:

har bir bolaning to'laqonli aqliy va shaxsiy rivojlanishiga yordam berish;

MTTda sog'lom psixologik muhit yaratish;

bolalarning hissiy, irodaviy va intellektual rivojlanish xususiyatlarini o'rganish;

bolalar ta'lim-tarbiyasi bo'yicha xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish;

bolalarga ta'lim-tarbiya berishda MTT pedagoglari va ota-onalarning psixologik kompetentligini oshirishga ko'maklashish;

bolalarning shaxsiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini psixologik jihatdan kuzatib borish, ta'lim-tarbiyadagi psixologik nuqsonlarni aniqlash, ularning aqliy rivojlanishida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday salbiy og'ishlarning oldini olish;

bolalarni MTTning ijtimoiy muhitiga moslasha olmasligi holatlarini korrektsiyalash, ularni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish;

psixologik, pedagogik, tibbiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan boshqa chora-tadbirlarni ko'rish hamda psixologik madaniyatni yuksaltirish ishlari olib borilishi lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida psixolog vazifalari

Amaliyotchi psixolog normativ hujjatlar bilan tasdiqlangan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibiga muvofiq ravishda ish olib boradi.

Psixolog alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning psixologik holatini, hissiy reaksiyalarini va ijtimoiy moslashuv darajasini inobatga olgan holda kuzatuv va tahlil ishlarini amalga oshiradi.

Mazkur jarayon ota-onalar yoki bola o'rnini bosuvchi shaxslar bilan hamkorlikda olib borilishi tavsiya etiladi. Bu orqali bola haqidagi ma'lumotlar yanada to'liq shakllanadi va oilaviy hamkorlik mustahkamlanadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolani turli o'yin, mashg'ulot va kundalik hayotiy vaziyatlarda kuzatish, shuningdek, ko'rgazmali qurollar, tabiiy predmetlar, rasm va o'yin materiallaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Psixolog kuzatuv jarayonida bolaning hissiy holati, muloqot qobiliyati, e'tibor, motivatsiya va moslashuv jarayonini aniqlab boradi hamda bu ma'lumotlar individual ta'lim dasturini tuzishda asos sifatida ishlatiladi.

Asosiy g'oya va maqsad maktabgacha ta'lim tashkilotida sog'lom ijtimoiy muhit shakllantirish bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida defektolog faoliyatini tashkil etish

Umumiy turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan, shu jumladan nutqida nuqsoni bo'lgan tarbiyalanuvchilar bilan korreksion-pedagogik mashg'ulotlarni o'tkazish uchun defektolog shtat birligi kiritiladi.

Mashg'ulotlar maxsus pedagogika sohasida oliy ma'lumotga yoki pedagogika bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan va maxsus pedagogika sohasida kasbiy qayta tayyorlovdan o'tgan defektolog tomonidan o'tkaziladi.

Defektolog bilan mashg'ulotlarga maktabgacha ta'lim tashkilotining quyidagi tarbiyalanuvchilari jalb qilinadi:

3 - 7 yoshdagi **inklyuziv guruhlardagi** rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilar;

5 - 7 yoshdagi nutqning fonetik-fonematik rivojlanmaganligi, dislaliya (oddiy, murakkab) bo'lgan tarbiyalanuvchilar.

Inklyuziv guruhlardagi rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan 3 - 7 yoshdagi tarbiyalanuvchilar hududiy psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasi asosida defektolog bilan mashg'ulotlarga jalb qilinadi.

Nutqida nuqsonlari bo'lgan **5 - 7 yosh**dagi tarbiyalanuvchilar yashash joyi bo'yicha davolash-profilaktika muassasasi logopedining korreksion-pedagogik ishlarni o'tkazish tavsiya qilinayotgan muddat belgilangan holda, ushbu davolash-profilaktika muassasasi muhri bilan tasdiqlangan va tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tomonidan ro'yxatga olingan xulosasi asosida defektolog bilan bo'lgan mashg'ulotlariga jalb qilinadi.

Defektolog bilan mashg'ulotlarning zaruratini aniqlash uchun tarbiyalanuvchilar rivojlanishi va nutqini dastlabki tekshirish bola maktabgacha ta'lim tashkilotiga qabul qilingan vaqtdan boshlab **2 hafta ichida o'tkaziladi.**

Defektolog faoliyatining vazifalari:

yakka tartibdagi korreksion-pedagogik ish rejasini tuzish uchun kompleks psixologik-pedagogik tekshiruvni tashkil etish;

rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlarni, shuningdek xotira, tafakkur, diqqat-e'tiborni imkon qadar korreksiya qilishga qaratilgan ishlarni amalga oshirish;

rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilarga ta'lim-tarbiya berish, ularni ijtimoiy moslashuvi, shuningdek rivojlanishidagi nuqsonlarni korreksiya qilish uchun qulay shart-sharoitlar, shu jumladan **inklyuziv ta'lim muhitini yaratish** yuzasidan pedagoglar bilan hamkorlikda ishlash va ushbu faoliyatlarni muvofiqlashtirish;

inklyuziv guruhlardagi tarbiyalanuvchilar bilan korreksion-pedagogik ishlar psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasida belgilangan muddatgacha o'tkazilish;

nutqida nuqsonlari bo'lgan **5 - 7 yosh**dagi tarbiyalanuvchilar bilan korreksion-pedagogik ishlar 6 oy o'tkazilganidan keyin maktabgacha ta'lim tashkilotiga hududiy biriktirilgan davolash-profilaktika muassasasining logopedi tomonidan tekshirilishi;

korreksion-pedagogik yordam ko'rsatilishini davom ettirish tavsiya etilganligi to'g'risidagi logopedning xulosasi berilishi, xulosada ko'rsatilgan muddat tugashigacha nuqsonlar bartaraf etilsa, defektolog tomonidan o'tkaziladigan mashg'ulotlar to'xtatilishi;

defektolog faoliyatiga bevosita rahbarlik qilish va uni nazorat qilish maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori tomonidan amalga oshiriladi.

Qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotida inklyuziv guruhlar

Qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalarning va rivojlanishida nuqsonlari bo'lmagan bolalarning bitta tashkilotda alohida guruhlarda,

shuningdek inklyuziv guruhlarda birgalikda o'qishini hamda tarbiyalanishini tashkil etishga qaratilgan maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturi amalga oshirilishini ta'minlanadi.

kamida 3 ta inklyuziv guruh;

qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotlardagi inklyuziv guruhlar uchun mo'ljallangan guruhlarni umumiy turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qo'yiladigan talablarga muvofiq, rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarga mo'ljallangan guruhlarni ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarga qo'yiladigan talablarga muvofiq bolalar bilan to'ldirishi shart;

Qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlarda inklyuziv guruhlar yoshi bo'yicha to'ldiriladi.

Qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar:

qulog'i kar bolalar uchun guruhlarda - ko'pi bilan **o'n nafar bola**;

qulog'i yaxshi eshitmaydigan bolalar uchun guruhlarda - ko'pi bilan **o'n ikki nafar bola**;

ko'zi ojiz bolalar uchun guruhlarda - ko'pi bilan **o'n nafar bola**;

ko'zi yaxshi ko'rmaydigan bolalar uchun guruhlarda - ko'pi bilan **o'n ikki nafar bola**;

tayanch-harakat apparati buzilgan bolalar uchun guruhlarda - ko'pi bilan **o'n sakkiz nafar bola**;

gemiparez, monoparez, plegiya asoratlari bo'lgan bolalar uchun guruhlarda - ko'pi bilan **o'n ikki nafar bola**;

bolalar serebral falaji sindromi asoratlari bo'lgan bolalar uchun guruhlarda - ko'pi bilan **o'n nafar bola**;

autizmga chalingan uch yoshdan katta bolalar uchun guruhlarda - ko'pi bilan **o'n nafar bola**;

murakkab nuqsonlari (ikki va undan ortiq nuqsoni) bo'lgan bolalar uchun guruhlarda - ko'pi bilan **o'n nafar bola**.

Qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotlarda uch yoshdan katta bolalarga mo'ljallangan inklyuziv guruhlar rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarning toifasiga qarab to'ldiriladi hamda quyidagini tashkil etadi:

kamida **20 nafar va ko'pi bilan 25 nafar bola**, shu jumladan, ko'pi bilan rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan (zaif ko'ruvchilar yoki zaif eshituvchilar yoki tayanch-harakat apparatida nuqsonlar bo'lgan) **3 nafar bola**;

kamida **20 nafar** va ko'pi bilan **25 nafar** bola, shu jumladan, ko'pi bilan rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan (ambliopiya bilan, ko'zi g'ilaylik, yoki nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan yoki autizm bilan) **2 nafar bola**;

kamida 20 nafar va ko'pi bilan 25 nafar bola, shu jumladan, ko'pi bilan nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan **3 nafar bola**;

kamida 20 nafar va ko'pi bilan 25 nafar bola, shu jumladan, ko'pi bilan psixik rivojlanishda kechikayotgan **3 nafar bola**.

Qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkilotlarining inklyuziv guruhleri qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlangan va ro'yxatga olingan umumiy turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun xarajatlar smetasi asosida moliyalashtiriladi.

Shuningdek qo'shma turdagi maktabcha ta'lim tashkilotlarida qisqa muddatli guruhlar tashkil etiladi.

qisqa muddatli guruhlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida foydalanilmaydigan xonalar bo'lganda tashkil etilishi;

davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qisqa muddatli rivojlantirish, **inklyuziv**, kechki, dam olish va bayram kunidagi guruhlar tashkil qilish;

inklyuziv guruh 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun o'ziga xos ehtiyojlari bor bolani jamiyatga moslashtirishni ta'minlash, bolaning qonuniy vakillariga maslahat-metodik ko'maklashish, o'ziga xos ehtiyoji bor bolalarning

bunday zaiflikka ega bo'lmagan bolalar bilan birga o'qishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida tashkil etilishi;

nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qisqa muddatli guruhlar turiga qarab 7 yoshgacha bo'lgan bolalar qabul qilinishi;

davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlar uchun quyidagi shtat birliklari belgilanadi:

bitta guruh uchun - 0,5 birlik tarbiyachi va 0,5 birlik tarbiyachi yordamchisi;

ikkita guruh uchun - 0,25 birlik tibbiy hamshira va 0,25 birlik musiqa rahbari.

Rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarga mo'ljallangan guruhlariga, shuningdek qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotning inklyuziv guruhlariga rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalar quyidagilar asosida qabul qilinadi:

bola qonuniy vakilining arizasi;

psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyaning belgilangan tartibda berilgan xulosasi;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakl bo'yicha bolaning tibbiy kartasi va profilaktik emlash kartasi asosida qabul qilinadi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda, qo'shma turdagi maktabgacha tashkilotining rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarga mo'ljallangan hamda inklyuziv guruhlarda bo'lish davri, korreksion ishlari muddati psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya tomonidan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”** 2024-yil 30-sentabrdagi **PF 152-sonli** farmoni;

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **“Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”** 2019-yil 13-maydagi **VM 391-sonli** qarori;

3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining **“Umumiy turdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim guruhleri faoliyatini tashkil etish to'g'risida”** 2025-yil 10-dekabrdagi **392-sonli** buyrug'i;

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi va Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazining **“Inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinf faoliyati yo'lga qo'yilgan umumta'lim maktablari hamda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlarning hamkorligini yo'lga qo'yish to'g'risida”** 2025-yil 29-sentabrdagi **49-Q/Q, 8-qq va 4-q/q-sonli** qo'shma qarori.